



## HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Xaydarova Roziya Davronovna**

*Termiz davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi*

### BOSHLANG'ICH SINFMATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARDA ONGLI HISOBLASH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL TA'LIM METODLARI

#### АННОТАЦИЯ

Мақолада таълимда ўқувчиларни фаоллаштиришга қаратилган турли интерфаол методлардан фойдаланиш таълим мақсадларини ва ўқувчиларнинг дарс материални ўзлаштириш даражасига бевосита ва билвосита таъсир этиб, ўқувчиларда онгли ва мустақкам ҳисоблаш малакаларини шакллантиришда хизмат қилиши илмий-услубий асосларга биноан ёритиб берилган.

**Калит сўзлар:** ўқувчи, таълим мақсадлари, интерфаол метод, фаоллаштириш, дарс материали, онгли ва мустақкам ҳисоблаш, малака.

Ма'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qish va o'qitish metodlari o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyat usullari bo'lib, bu faoliyat yordamida yangi bilimlar, malakalar va ko'nikmalarga erishiladi. O'quvchilarga egallangan bilim, o'quv va malakalarini turli xil sharoitlarda qo'llanishga o'rgatishni o'qitishning maxsus masalasi sifatida qarash kerak.

Boshlang'ich matematika ta'limi bolalarning ma'lum bilim va malakalarini o'zlashtirib olish bilan birga ularda o'quvchi-yoshlarning erkin, mustaqil fikrlash,



atrofdagi voqelikka ongli munosabatda bo'lish, dahldorlik va ijtimoiy faollik kabi sifatleri va kuzatuvchanlik, idrok, ijodiy tasavvur, diqqat, xotira va tafakkur kabi imkoniyatlarini ilmiy rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

Boshlang'ich sinflarda matematika fani o'quvchilar kuchi yetadigan darajada o'quv materialini umumlashtirishni, o'rganilayotgan matematik faktlar asosida yotuvchi umumiy printsiplarni va qonuniyatlarni tushunishni, qarab chiqilayotgan hodisalar orasida mavjud bo'lgan bog'lanishlarni tushunishni nazarda tutadi. Bu, asosan, amallarning xossalarini, ular orasidagi mavjud bog'lanishlarni o'rganishga, bolalarda shakllana- yotgan amaliy uquv va ko'nikmalarning asosi bo'lgan matematik munosabatlar va bog'lanishlarga taalluqlidir.

Bu maqsadlardan kelib chiqib, o'quvchi aqliy faoliyatining muhim jihatlari: tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, aniqlik kiritish, o'xshashini topish kabi murakkab va zifalarni bajarish ko'nikmalarini ham hosil qilish kerak. Bu esa, fan bilan amaliyot orasidagi bog'lanishlarni to'g'ri tushunish va keyinchalik atrofimizda sodir bo'layotgan hodisalar orasidagi o'zaro bog'lanishlarni tushunish uchun muhim asos bo'ladi.

O'quvchilar matematik qonuniyatlar bilan amaliy harakatlari orqali tanishadilar va hayotiy masalalarni hal qilishda olgan bilimlarni qo'llaydilar. Ta'lim va tarbiya yagona qonuniyat bo'lib, ayniqsa, matematika darsida nafaqat tabiatni e'zozlash va unimuhofaza qilish, balki tejamkorlik, mehnatsevarlik, tadbirkorlik kabi zarur tarbiyaviy vazifalarni xam bajariladi.

O'quvchilarda misol va masalalar yechish davomida faollik, diqqatni jamlash, topqirlik, chidamlilik, iroda va boshlangan ishni oxiriga yetkazishga intilish kabi xislatlar tarkib topadi. Boshlang'ich matematika ta'limining asosini butun sonlar ustida bajariladigan to'rt arifmetik amal, hamda puxta o'zlashtirilgan og'zaki va yozma hisoblash usullari, asosiy miqdorlar va ular orasidagi munosabatlar, yer ustida chamalab va aniq o'lchash, yassi shakllar va ularni o'lchamlari bilan tanishtirish kabilar tashkil etadi.

Bu ko'nikmalarni shakllantirish uchun ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarni tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Boisi bunday metodlarni qo'llash ta'lim ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantiradi.

O'qituvchi tomonidan bolalarni ijodiy izlanish, faollik, erkin fikr yuritishga yo'naltiruvchi ta'lim shakli, metod va vositalarining to'g'ri tanlanishi darslarning qiziqarli, bahs-munozaralarga boy bo'lishi, ijodiy tortishuvlarning yuzaga kelishiga turtki beradi. Manashu holatdagina bolalar tashabbusni o'z qo'llariga oladilar, o'qituvchining zimmasida esa ularning faoliyatini ma'lum yo'nalishga solib yuborish, umumiy faoliyatni nazorat qilish, murakkab vaziyatlarda yo'l-yo'riq ko'rsatish, maslahatlar berish hamda ular faoliyatini baholash kabi vazifalar qoladi.

Ta'limda o'quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interfaol metodlardan foydalanish ta'lim maqsadlarini samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Interfaol usullar asosida hamkorlik asosida o'qitishning 4 ta asosiy turi mavjud:

- kognitiv usullar
- o'yinlar, eksperimental faoliyat



- ish bilarmonlik o‘yinlari, modellashtirish
- amaliyot orqali o‘qitish, bevosita faoliyat

Bunday usullarning barchasida ham o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik, o‘quvchining ta’lim jarayonidagi faol harakati ko‘zda tutiladi.

“Aqlcharxi”, “Klaster”, “Aqliy hujum” usullarida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, tez va to‘g‘ri hisoblash malakalari shakllanadi.

Matematika darslarida qo‘llaniladigan usullar o‘rgatilgan mavzuning o‘quvchi xotirasida uzoq vaqt qolishi uchun yordam beradi.

“**Aqliy hujum**” muayan muammo bo‘yicha o‘quvchilarni ijodiy ishga, o‘zaro muloqotga chorlash bilan birga muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritishga undaydi. Bunda o‘quvchilarning berayotgan javoblariga na o‘qituvchining va na boshqalarning aralashuviga, har qanday fikr bildirishlariga yo‘l qo‘yilmaydi va natijalar baholanmaydi, ballar qo‘yilmaydi. Muammoning yechimi bo‘yicha fikrlar shakllanib bo‘lgach oxirgi marta umumlashtiriladi va aniq fikrga kelinadi. Shundan keyin o‘quvchilar o‘zlarining takliflarini o‘zlari solishtirib, to‘g‘ri va xato fikrlarini anglab yetishadilar va o‘zlarini o‘zlari baholaydilar.

**Kichik guruhlarda ishlash**- o‘qituvchi mayda guruhlarda ishlaganda, darsda faol ishtirok etish huquqiga boshlovchi rolda bo‘lishiga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai nazarlarni qadrlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

**CHaxpalak:** mazkur usul yordamida o‘quvchilar o‘rganiladigan yangi material bo‘yicha mustaqil bilimga ega bo‘lishi, jamoa bilan ishlash malakasini olishi, axborot almashishi hamda jamoa bo‘lib qaror qabul qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Xulosa, darsning faollashtiruvchi usullari yordamida o‘quvchilarning dars materialini o‘zlashtirish darajasi ancha yuqori bo‘ladi, o‘quvchilarda ongli va mustahkam hisoblash (ko‘pincha avtomatizmga yetkazilgan) malakalarini shakllantirish kabi kutilgan natijaga olib keladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Gaybullaev N. Metodika provedeniya prakticheskix zanyatiy po matematike.-M., 2004
2. Jumaev M.E. Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. (KXX uchun ) Toshkent. “Ilm Ziyo” 2005 yil.
3. Jumaev M.E, Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodika-sidan praktikum. (OUYu uchun ) Toshkent. “O‘kituvchi”, 2004 yil.
4. Jikalkina T.K. Didakticheskie igrы na urokax matematiki. - M., 1994.
5. Istomina N.B. i dr. Metodika prepodavaniya matematiki v nachal’nyx klassax.-M.: MGZPI, 2006.